



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

**Выпуск №11 (том 3)
(февраль, 2021)**



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №11 (том 3) (февраль,
2021). Дата выхода в свет: 28.02.2021.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

PEOPLE HYGIENE IN EPIDEMIC CONDITION IS Umarova Mulkijahon Sadulla qizi	482
ADVERBS AND ADVERB PHRASES POSITION AND THEIR TYPES Karimova Munisa Yaxyoevna	485
СЛЕДЫ ВОЕННОПЛЕННЫХ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ В ХУДЖАНДЕ Собиров Н., Ахмедова Х., Собиров Хурсандбек	490
ONA TILI FANINI O'QITISHDA "UYADOSH SO'ZLAR O'QUV LUG'ATI"NING TA'LIMIY AHAMIYATI Narzullayeva Hurmatoy Shavkat qizi, Narzullayeva Shahnoza Shavkat qizi	496
МАЛЫЙ БИЗНЕС И ЧАСТНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО. ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ Валиев Мухаммаджон Баходир оглы	499
PSYCHOLINGUISTIC AND LEXICAL ANALYSIS OF SPEECH ERRORS Gulsanam Shodieva	504
O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING PAYDO BO'LISHI Ikromova Lola Boltayevn, Rashidova Qunduz Shuhrat qizi	511
МАКТАБГАЧА VA МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN VITAMINLASHTIRILGAN KONSERVA MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI Bobojonova Shohista Xolboyqizi, Kuramboyev Sh.	516
TERMINOLOGY OF ENGLISH AND UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS RELATED TO SPORTS Xudoyberganova Mohigul Alisher qizi, Shokirova Mahbuba Nazirg'ulomovna	521
ИНСТИТУТ СЕМЬИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ПРАВОВАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ Хабиуллаева Бусолияхон Абдулжалил кызы	525
THE CONSTITUTION IS THE LEGAL BASIS OF THE LAW STATE Karimova Shakhzoda Sobitjonovna	529
БОЛАЛАР СОГЛОМЛАШТИРИШ ОРМОГОХЛАРИДА КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИ МАҲНАВИЙ- АХЛОҚИЙ ФАЗИЛАТЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТАМОЙИЛЛАРИ Айназарова Асия Жумамуратовна	532
ЗНАЧЕНИЕ ДРЕВНИХ ОБРАЗЦОВ, СИМВОЛОВ, ИЗОБРАЖЕНИЙ Наимова Дилбар Нумоновна, Асадова Наргиза	544

ФИО авторов: Ikromova Lola Boltayevna (BuxDU, Nemis va fransuz tillari kafedrasi o'qituvchisi), Rashidova Qunduz Shuhrat qizi (BuxDU, 3-kurs talabasi)

Название публикации: «O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING PAYDO BO'LISHI»

Annatatsiya: *Ushbu maqolada xalqimizning boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqollar va ularda kelib chiqishi aks etgan xalq hayoti va insoniy tuyg'ulari tasviri ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Maqol, metal, masal, til, xalq og'zaki ijodi, ma'naviyat, adabiyot.*

Maqollar xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblanadi. Maqollar shakliga ko'ra ixcham, ammo chuqur mazunga ega bo'lган janrlardan biridir. Aytishimiz mumkinki, maqollarning vujudga kelishiga sabab, xalqning ko'п asrlar davomida, insonlarning hayotiy kuzatishlari, turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tajribalariga asoslanganligini ko'ramiz. Shu uchun ham har bir maqolning mazmun- mohiyatida ko'п asrlik o'ziga xos tajriba va hayotiy tarbiyaviy ahamiyati aks etadi. Xalq maqollari uzoq yillar davomida turmush tajribalarida va turli xil sharoitlarda bir necha martalab sinovdan o'tgan.

Har bir xalqning va har bir millatning o'ziga xos maqollari mavjuddir. Maqollar o'zgarmaydi, ya'ni har bir millatdagi maqollarning ham kelib chiqishi xalqning biur necha yillik tajribasi asosida yuzaga kelgan. Tarixiy manbalar va xalq orasida maqollr turli xil atamalar bilan nomlanib kelgan. Masalan : maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so'z, ibora va hakozo.

Ilk maqollar qadim zamonlarda paydo bo'lgan. "Maqollarning paydo bo'lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarning ko'pchiligi insonlar orasidagi o'ylab chiqarish munosabatlari, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqollardagi fikrning she'riy ifodasi voqelikning ongsiz-badiiy shaklidir".

Maqolning mataldan farqi: "matal – nutqda emotsional baho uchun mavjud bo‘lgan va bir qator o‘xhash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobillik tamoyiliga ko‘ra qo‘llaniluvchi umumqabul qilingan obrazli ifodadir. Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlanayotgan bo‘lsa, matal bir tugal fikr, xulosa ichiga to‘laqonli bir bo‘lak sifatida kiritiladi".

XX asrning oxirgi 30-yilida maqollarni tahlil qilishning yangi struktur semantik yondashuvi yuzaga keldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya fan sohalari taraqqiyoti bilan bog‘liq. Ilmiy paremiologiyaning asoschilaridan biri G. L. Permyakovdir. Uning fikricha, "*tugallangan fikr*"ni ifodalovchi majoziy so‘z oborotlariga matallar, "*tugallangan fikr*"ni shakllantiruvchi majoziy ma’noli gaplarga **maqollar** deyiladi.

Turli xil xalqlarda maqollar turli xil ko’rinishlarga ega. O’zbeklarda maqol, tojiklarda « zarbulmasal »», turklarda « ata so’zi » ruslarda esa « poslovitsa soz’lari bilan ataladi.

Mahmud qoshg’ariyning « Devonu lu’gatit turk asarida maqol so’zi « sav » atamasi bilan keladi. Alisher Navoiyning asarlarida aynan maqolni misol keltirganda « masal » atamasidan foydalangan. Nihoyat maqol atamasi asl mazmun jihatdan « so’z » tuhunchasiga bog’langan. Aytishimiz mumkinki, dunyodagi barcha xalqlar og’zaki ijodida maqolchilik rivojlangan bo’lib, u asosan shakli va mazmuni o’zaro bir biriga bog ‘liq. Ya’ni har bir maqolning qofiyadoshligi she’rga o’xhab ketsada ammo ma’no jihatdan yagona bir mavzuni qamrab oladi. O’zbek maqollari bilan shug’ullangan olimlarimizdan biri Mullo Bekjon Rahmon o’g’lidir. Mullo Bekjon Rahmon o’gli tomonidan 1923-yilda « O’bekcha otalar so’zi »nomli o’zbek tilidagi hikmatli so’zlar to’plami chiqqan. 1926 –yilda « O’zbek maqollari » to’plami Sherali Ro’zi tomonidan nashr qilingandir.

Shu vaqtadan boshlab « maqol » atamasi janr sifatida keng yoyila boshladi. Shundan keyin, B. Karimov, Sh. Rizo, o. Azimov, H. Zarif, T. Mirzayev kabi ko’plab olimlar va ziyorolar xalq maqollarini to’plashga va o’rganish uchun juda faol ishtirok etdilar. Ayniqsa, 1987, 1988-yillarda ikki jildan iborat « O’zbek xalq maqollari » kitoblarining nashr qilinishi, bu sohaga juda katta e’tibor berilganini ta’kidlashimiz mumkin.

Dono xalqimiz milliy madaniyatini, so‘z boyligini maqollar orqali ham namoyon qiladi. Xalqimiz boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Bu xususida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning shunday fikrlari bor: “Ma’naviyati, o‘z xalqining tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”. O‘zbek xalq maqollari, matallari va iboralarini o‘rganish bugungi kunda nafaqat adabiyotshunoslik, tilshunoslikning ham oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Maqol va matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o‘siradi, ularni to‘g‘ri so‘z, rostgo‘y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo‘lishiga o‘rgatadi, kishidagi eng insoniy fazilatlarni targ‘ib etadi. Shuningdek, yozuvchi, shoirlar va notiqlarning so‘z boyliklarini orttiradi, ularning asarlarini badiiy jihatdan g‘oyat ta’sirli qiladi. Biz og‘zaki so‘zlashuvimizda juda ko‘plab maqollarga murojaat qilamiz. Maqol xalqimizning yillar davomida shakllangan og‘zaki nutqining namunasi hisoblanadi.

“Maqol” atamasi arabcha **qavlun - gapirmoq, aytnmoq** so‘zidan olingan bo‘lib, aytilib yuriladigan iboralarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘zbek xalq maqollari tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Maqollardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biror so‘zni qo‘shish mumkin emas. Maqolga adabiy til nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiyilagini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minalash uchun undan foydalanish har doim so‘z san’atkolarining diqqat markazida bo‘lgan.

Har bir tilning lug‘at zahirasida murakkab o‘ziga xos qoliplar bo‘ladi, ya’ni turg‘un, nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan, bo‘linmas oborotlar mavjud. Bular (ustasi farang) shaklidagi frazeologizm-idiomalar shaklidagi tarkibiy atamalar, har turli maqollar, matallar, “balandparvoz so‘zlar”, muallifning xalq hikmatli so‘zlari, semiotika (belgilar haqidagi fan)da oson tafakkur qilinadigan odatiy gazeta va adabiy shtamplar va boshqalar.

Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulg‘izi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘.G‘ulom va boshqa

ko‘plab ijodkorlarning asarları sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan – qancha maqollar borligini ko‘ramiz. Folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 275 ga yaqin maqol va matallar keltirilgan. Bu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor, yoki Sulaymonqul Rojiy o‘zining “Zarbulmasal” asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir. O‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, H. Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya – lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tilidagi tarjimasi ham berilgan. “O‘zbek xalq maqollari” nomli 2 asar kitoblari nashr etilgan. 2009, 2012, 2013 yillarda T. Mirzayev tomonidan “O‘zbek xalq maqollari” to‘planib, “Sharq” nashriyotida chop etildi. Bu to‘plamlarda maqollar mavzularga ajratilgan holda berilgan. Yaxshilikka oid maqollar 2009-yil nashrida 20 ta, 2012-yil nashrida esa 60 ta keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin, ammo o‘zbek tilida yaxshilikni ifodalovchi maqollarning milliy – madaniy xususiyatlari asosida maxsus tadqiq etilmagan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz kerakki, maqollar orqali o‘zbek xalqining tarixi qadimiyligini, an’analari, milliy-madaniyati, ta ‘lim –tarbiyasi naqadar kuchli ekanligini ifodalaydi va madaniyatimizning maqollarda namoyon bo‘lishini ko’rsatib beradi.

Foydalanilanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.